

Dovud

payg'ambar qissasi



*Ushbu asar turk tilidan o'zbek tiliga **Nuur** tarjimonlar guruhi tomonidan o'girildi.*

NUUR

TARJIMONLAR
GURUHI

Dovud

payg'ambar qissasi



Özkan Öze
Rassom: Sevgi İçigen


Bu kitobdagi rasmlarda payg'ambarlarning yuzlarini ko'ra olmaysiz. Chunki musulmonlar payg'ambarlarga bo'lgan hurmatlari tufayli ularning rasmlarini chizmaydilar.





Juda uzoq zamonlar ilgari, juda-juda ko'p zamonlar oldin Falastinda lyshaa ismli bir odam yashar edi. lyshaaning o'n ikkita bir-biridan kuchli, katta va juda sog'lom o'g'illari bor edi. Va yana bitta Dovud ismli o'g'li ham bor edi. Dovud zaif va ozg'in bola edi. Uni aka-ukalari orasida ko'rgan odam: "Menimcha, bu bola kasal bo'lsa kerak",- deb o'ylardi.

Otasi lyshaa Dovudning bu holatidan juda qayg'uda edi. U hatto biroz uyalardi. Dovudning odamlar ko'z o'ngida yurishi unga yoqmasdi. Uni odamlardan uzoqlarga, qo'ylarni boqish uchun tog'larga jo'natardi.





**Dovud ozg'in, zaif, nimjon va nozik edi.
Ammo boshqa aka-ukalarida bo'lmagan
ba'zi qobiliyatlar unda bor edi.**

Alloh Dovudga juda chiroyli ovoz bergandi. U tog'larda, gulli dalalarda, yashil tekisliklarda bu go'zalliklarni yaratgan Alloh uchun hamdlar aytib, duo va shukurlar qilardi!





Hatto qushlar ham jim bo'lib, Dovudni tinglashardi. Shamol ham Dovudning ovoziga hamrohlik qilardi. Va uning tog'lardan aks sado bergan sasi to malaklargacha yetardi. Dovudning yana bir qobiliyati ham bor edi. U mergan, ya'ni qayerga qarab bir toshni otsa, nishonga juda aniq tekkinga olardi. Allohning izni bilan, biror otgan toshi nishonga tegmay qolmagan edi.



Kunlarning birida Dovudning yurtida urush boshlandi. Jolut ismli shafqatsiz qo'mondon askarlari bilan ular tomon bostirib kelayotgan edi. Jolut dev kabi juda kuchli va juda zolim edi.






Dovudning xalqini Tolut ismli shohi bor edi.

**Tolut hammani Jolut bilan jang qilishga
chaqirdi. Dovudning baquvvat akalari ham
qo'shinga qo'shilishdi.**

Tolut qo'shini Jolut bilan jang qilish uchun yo'lga chiqdi. Ular yo'l yurib bir daryo qirg'og'iga kelishdi. Ko'p kunlar yo'l yurgani uchun hamma charchagan va qattiq suvsagan edi.





**Tolut askarlariga: “Faqat bir qultum iching,
undan ko’p suv ichmang. Aks holda mening
askarim emassiz, askarlikdan chiqasiz!” - dedi.**

Ammo bir nechalaridan tashqari hech kim bu buyruqqa quloq solmadi. Ular qorinlarini suv bilan to'ldirishdi.






Va ko'p suv ichganlar, Jolut bilan jang qilishdan voz kechishdi. Tolutning qo'shini juda ozayib qoldi. Endi bu kichik armiya Jolutni qanday yengadi?



Bu orada Dovud dalada qo'ylarini
o'tlatib yurarkan, osmondan bir ovoz
eshitildi: "Ey Dovud! Jolutni sen
mag'lub etasan. Qo'ylaringni
Allohga omonat qoldir-da,
akalaringni yoniga bor."





Dovud yugurdi, yugurdi,
va yana yugurdi... Va u
qo'shinga yetib oldi.
Ammo qo'shin juda oz
edi. Dovud ham ancha
zaif edi...

Yo, Allohim! Jolut juda dahshatli ko'rinardi. Uning boshida katta bir dubulg'a bor edi. U yana katta ot ustida edi. U hanuzgacha hech ham yengilmagan dev edi. Jolut oldinga otildi va Tolutdan o'zi bilan yakkamayakka kurashadigan kimnidir yuborishni so'radi. "U bilan kim jang qila oladi?"- dedi Tolut. Hech kimdan sado chiqmadi!





Faqatgina Dovud oldinga chiqdi va: "Men kurashaman!" - dedi. Dovudning na bir zirhi, na oti, na quroli va na bir nayzasi bor edi. Unda faqat merganlik mahorati va yo'lda to'plagan toshlarigina bor edi, xolos.

Buni ko'rgan Jolut kulib: "Meni tosh bilan yengmoqchimisan?"-dedi. Dovud Jolutga qarata bir tosh otdi. Tosh uchib borib, Jolutning ikki qoshi o'rtasiga "Taq" etib tegdi. Jolut otidan yiqilib, yerga tushdi. Tolutning kichik qo'shini jangda g'alaba qozondi.





Urushdan keyin Tolut qizini Dovudga turmushga berdi. Tolut vafot etgach, Dovud shoh bo'ldi. U juda mehribon va aqlli inson edi. Alloh uni payg'ambar qilib tanladi. Va unga "Zabur" nomli muqaddas kitobni yubordi. Dovud payg'ambar ko'p ibodat qilar edi. U tonggacha Zabur o'qirdi. Yer va osmon uning go'zal ovozini tinglardi.





**U shoh edi. Ammo o'z qo'llari bilan
temirchilik qilar va topganiga qanoat qilib
(rozi bo'lib) kun kechirar edi. Bu galgi
qissamiz Dovud payg'ambarning mana shu
hikoyasi edi. Va bu ozchilik ko'pchilikni,
zaiflar kuchlilarni Allohning yordami bilan
qanday yengishi haqidagi go'zal bir
o'rnakdir...**



TARJIMONLAR
GURUHI

*Ushbu asar turk tilidan o'zbek tiliga **Nuur** tarjimonlar guruhi tomonidan o'girildi. Duolaringizdan umidvormiz!*

 @nuur_uz